

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchirov Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

CONFLICT-OF-LAW ISSUES IN REGULATING ALIMONY OBLIGATIONS COMPLICATED BY A FOREIGN ELEMENT

Kholikova Gavkhar

Doctoral student, University of World Economy and Diplomacy

E-mail: gavharkholiqova@gmail.com

Abstract. This article examines the conflict-of-law issues in the regulation of alimony obligations under private international law. First, the scholarly views on the concept of alimony obligations and their international legal nature are discussed. The paper then analyzes conflict-of-law problems arising in alimony relations involving a foreign element and highlights the main principles applied in resolving them. Particular attention is given to the provisions of national legislation of various countries and international treaties, including the Hague Conventions and other relevant instruments. The article also addresses existing practical challenges and, based on scholarly conclusions, puts forward both theoretical and practical recommendations.

Keywords: alimony obligations, private international law, conflict of laws, foreign element, Hague Conventions, international treaties, family law, scholarly perspectives.

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI

Xoliqova Gavhar Ramazon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini tartibga solishning kollizion masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Avvalo, aliment majburiyatlari tushunchasi va ularning xalqaro huquqiy mazmuni bo'yicha olimlarning qarashlari yoritiladi. Shundan so'ng, xorijiy element bilan bog'liq aliment munosabatlarida yuzaga keladigan kollizion masalalar, ularni hal etishda qo'llaniladigan asosiy prinsiplarga e'tibor qaratiladi. Maqolada turli davlatlar qonunchiligi va xalqaro shartnomalarda, xususan, Gaaga konvensiyalari hamda boshqa xalqaro hujjatlarda belgilangan normalar o'rganilgan. Shu bilan birga, ushbu sohada uchraydigan amaliy muammolar ham tahlil etilib, olimlarning ilmiy xulosalari asosida nazariy hamda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: aliment majburiyatlari, xalqaro xususiy huquq, kollizion normalar, xorijiy element, Gaaga konvensiyalari, xalqaro shartnomalar, oilaviy huquq, ilmiy qarashlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N75>

Aliment majburiyatlari oilaviy huquq institutining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat ichki davlat qonunchiligida, balki xalqaro munosabatlarda ham alohida o'rin tutadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida turli davlat fuqarolari o'rtasida nikoh tuzilishi, ajralishi yoki aliment majburiyatlarining yuzaga kelishi tobora ko'proq uchramoqda. Bunday vaziyatlarda qaysi davlat qonunchiligi qo'llanishi masalasi kollizion huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Chet el elementi bilan bog'liq aliment munosabatlari ko'plab huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki alimentni to'lash yoki olishda turli mamlakatlarning qonunlari o'zaro to'qnashishi mumkin. Xalqaro xususiy huquqda bu holat ikki yoki undan ortiq davlat

yurisdiksiyasi o'rtasida kelishmovchiliklarga olib keladi. Turli yuridik tizimlar o'rtasidagi farqlar esa aliment to'lash, olish va qarorlarni ijro etishni murakkablashtiradi.

G.Yu.Fedoseyevaning fikricha, aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquq obyektini sifatida ikki asosiy talabga javob berishi lozim: birinchidan, aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar obyektini doirasiga kirishi; ikkinchidan, asosiy maqsad alimentga oid munosabatlarni xalqaro xususiy huquqiy tartibga solinishidir[1]. Fedoseyeva yondashuvi bu yerda aliment munosabatlarini xalqaro xususiy huquq obyektini sifatida tushinishda ikki bosqichli konseptual filtrlash metodiga asoslanadi. Birinchi bosqich — huquqiy tabiati va joylashuvi: aliment munosabatlari avvalo xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar obyektini doirasiga kiradimi yoki yo'qmi, degan savolga javob topish. Bu, aslida, ularni oddiy ichki huquq munosabatlaridan farqlash, ya'ni chet el elementi mavjudligini aniqlash bilan chambarchas bog'liq. Agar chet el elementi bo'lmasa, ular xalqaro xususiy huquq doirasiga ham kirmaydi. Ikkinchi bosqich — tartibga solish maqsadi: agar aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquq obyektini deb topilsa, asosiy vazifa ularni qanday xalqaro xususiy-huquqiy tartibga solish kerakligini belgilashdir. Bu bosqichda kollizion normalar, xalqaro shartnomalar, o'zaro yordam to'g'risidagi bitimlar va boshqa huquqiy mexanizmlar ishga tushadi. Bu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, Fedoseyeva xalqaro xususiy huquq obyektini aniqlashni faqat "chet el elementi bor" degan oddiy belgi bilan cheklamaydi, balki uni tartibga solish maqsadiga yetaklaydigan mantiqiy bosqichlarni ajratadi.

Aytish mumkinki, Fedoseyeva konsepsiyasi Konsevoyning "chet el elementi so'ng xalqaro xususiy huquq mexanizmi" modelidan murakkabroq va tizimliroq. Chunki u obyektini aniqlash va shundan so'ng qanday tartibga solishni aniqlashtirish ketma-ketligini taklif etadi.

Turli davlatlarning oila huquqiga oid moddiy-huquqiy normalari katta xilma-xillikka ega bo'lib, bu amaliyotda nikoh-oila huquqiy munosabatlarining turli masalalarini hal qilishda kolliziyalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.[2] Bu xilma-xillik faqat "tashqi farqlar" bilan cheklanmay, balki bir xil faktik holatga beriladigan huquqiy baho va tartibga solish mexanizmlaridagi tafovutlardan kelib chiqadi. Demak, kolliziyaning ildizi ko'pincha madaniy-huquqiy yondashuvdagi farqlarda yotadi.

Bir xil faktik holatlarga nisbatan huquqiy tartibga solishdagi farq kolliziyaning vujudga kelishiga asos bo'ladi ya'ni turli davlatlarning huquqiy tizimlari to'qnashuviga sabab bo'ladi.[3] G.K. Dmitriyeva ta'kidlaydiki, oila-nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi ziddiyatlar nafaqat turli dinlar hukmronlik qiladigan davlatlarning huquqiy tizimlarida, balki bir xil e'tiqodga ega va bir huquqiy oilaga (masalan, roman-german oilasiga) mansub bo'lgan davlatlarda ham kuzatiladi.[4] Kosova, oila huquqi barcha mamlakatlarda qonunchilikning konservativ tarmog'i ekanligini ta'kidlaydi.[5] Kosovaning "oila huquqi — barcha mamlakatlarda qonunchilikning konservativ tarmog'i" degan xulosasi ushbu kolliziyalarning nega tez bartaraf etilmasligini tushuntiradi. Konservativlik bu yerda ikki ma'noga ega. Birinchidan, oila huquqidagi institutsional barqarorligi, ya'ni oila huquqi tez-tez islohot qilinmaydi, o'zgarishlar ehtiyotkorlik bilan joriy etiladi. Ikkinchidan, an'anaviylik — oila munosabatlari madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chuqur bog'langan, shu sabab milliy o'ziga xoslik kuchli saqlanadi. Natijada, turli mamlakatlar o'rtasida bir xillikni ta'minlash bo'yicha xalqaro konvensiyalar (masalan, aliment majburiyatlariga oid Gaaga konvensiyalari) mavjud bo'lsa ham, moddiy-huquqiy normalardagi farqlar ularning to'liq uyg'unlashishiga to'sqinlik qiladi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarida alimentlarni haqiqatda undirish muammosi bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda, chunki chet elda bo'lgan shaxslardan aliment undirish to'g'risidagi ko'plab sud qarorlari (buyruqlari), javobgar joylashgan davlat bilan huquqiy yordam to'g'risida shartnoma tuzmaganligi sababli ijro etilmaydi. Xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini tartibga solish moddiy va protsessual normalarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida aliment munosabatlarini xalqaro xususiy huquqiy jihatdan tartibga soluvchi normalarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh aliment majburiyatlarni tartibga solishga qaratilgan xalqaro konvensiyalar, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar bo'lsa, ikkinchi guruh chet el elementi bilan bilan murakkablashgan aliment munosabatlarini kollizion tartibga solishga doir milliy qonunchilik normalari.

D.I.Girfanovanning fikricha chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlarida ishtirok etish uchun taraflar oilaviy huquqning subyekti bo'lishi lozim. Hamda ushbu shaxslar oilaviy huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi zarur.[6] D.I. Girfanovanning fikri, ya'ni chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlarida qatnashish uchun taraflar oilaviy huquq subyekti bo'lishi va oilaviy huquq hamda muomala layoqatiga ega bo'lishi shart degan talabi, mantiqan asosli hisoblanadi. Chunki, oilaviy huquq subyekti bo'lish — shaxsning qonuniy tarzda oila munosabatlariga kirishish qobiliyati, ya'ni uning huquqiy maqomini belgilaydi. Agar shaxs mazkur maqomga ega bo'lmasa (masalan, qonun bo'yicha oila a'zosi hisoblanmasa), aliment munosabatlari vujudga kelmaydi. Oilaviy huquq va muomala layoqati esa shaxsning nafaqat huquqiy imkoniyatga, balki huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradigan xatti-harakatlarni mustaqil amalga oshirish qobiliyatiga egaligini bildiradi. Bu xalqaro element mavjud bo'lgan holatlarda yanada muhim, chunki turli davlatlar layoqat yoshini va hajmini turlicha belgilaydi. Demak, Girfanovanning yondashuvi xalqaro xususiy huquqda aliment munosabatlari subyektlarini aniq belgilash va ularning huquqiy imkoniyatlarini chet el huquq tizimlari o'rtasida moslashtirish uchun zarur metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv amaliyotda kollizion masalalarni kamaytirishga yordam beradi. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan qaraganda, D.I. Girfanovanning fikri nazariy jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, amaliyotda bir nechta murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki davlatlar o'rtasida muomala layoqati me'yorlarida farqlar mavjud. Masalan, bir davlatda nikoh yoshi 18 bo'lsa, boshqasida 20 bo'lishi mumkin. Bu esa taraflardan biri bir davlat qonunchiligi bo'yicha oilaviy huquq subyekti sanalsa-da, boshqa davlat qonunchiligida hali bu maqomga ega bo'lmasligi holatini keltirib chiqaradi. Xalqaro xususiy huquqda qo'llaniladigan kollizion normalar layoqat masalasida yagona standart yaratmaydi. Shuning uchun, Girfanova belgilagan talablarga qaramay, ayrim hollarda turli davlatlarning qarorlari o'zaro tan olinmasligi ehtimoli saqlanib qoladi. Shu sababli, Girfanova yondashuvini amalda samarali qo'llash uchun xalqaro shartnomalarda yoki ikki tomonlama bitimlarda oilaviy huquq subyektligi va layoqat mezonlarini bir xilda belgilash talab etiladi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlarida taraflarning oilaviy huquq subyekti bo'lishi va huquq hamda muomala layoqatiga ega bo'lishi haqidagi talab amaliy nuqtai nazardan juda muhim. Chunki xalqaro xususiy huquqda huquqiy subyektlilik — har qanday huquqiy munosabatning boshlang'ich nuqtasidir. Agar shaxs huquq subyekti sifatida tan olinmasa yoki muomala layoqati cheklangan bo'lsa, aliment majburiyatlarini yuzaga keltirish yoki ularni amalga oshirishning o'zi murakkablashadi. Shu bois, ushbu bu yondashuv

xalqaro munosabatlarda protsessual aniqlik va huquqiy xavfsizlikni ta'minlaydi. X.Abduraxmonova chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari subyektlari haqida fikr bildirib, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarining subyektlari bo'lgan ota-ona va bolalar bir-birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Bunda voyaga yetmagan bolalarga hamda nikohsiz tug'ilgan bolalarga (otalik belgilangandan so'ng) aliment to'lash bo'yicha majburiyatlarda ota-ona tengdir deb ta'kidlaydi. Bu yondashuv asosan moddiy-huquqiy tenglik prinsipiga asoslanadi va bolalarning manfaatlarini himoya qilishni ustuvor deb biladi. Ayniqsa, nikohsiz tug'ilgan bolalarga nisbatan aliment majburiyatining ota-ona uchun teng qo'llanilishi, xalqaro maydonda ham, ichki qonunchilikda ham diskriminatsiya oldini olishning muhim kafolati sifatida ahamiyatli.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi chet el elementi bilan murakkablashgan mulkiy munosabatlar kollizion-huquqiy hamda moddiy-huquqiy usullar vositasida tartibga solinadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarning kollizion-huquqiy usul orqali tartibga solinishida asosan bolaning shaxsiy qonuni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarning ko'pchiligida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishda bolaning shaxsiy qonuni kollizion bog'lovchisi qabul qilingan. Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarda asosiy muammolar aliment majburiyatlari doirasida vujudga keladi[7]. X.B.Abduraxmonovanning bu fikri xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladigan ikki asosiy yondashuv — kollizion-huquqiy va moddiy-huquqiy usullarni aniq ajratib ko'rsatgani bilan ahamiyatlidir. U ta'kidlaganidek, kollizion-huquqiy usulda hal qiluvchi omil sifatida bolaning shaxsiy qonunini qabul qilish, ayniqsa roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarda keng tarqalgan. Bu yondashuv mantiqan to'g'ri, chunki bola bilan bog'liq munosabatlarda uning huquqiy maqomi va manfaatlari ko'pincha uning fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi qonuni bilan eng to'g'ri ifodalanadi. Shunday bo'lsa-da, amaliyotda bu prinsip turli davlatlarning "shaxsiy qonun"ni belgilash mezonlari farqlanishi sababli bir xil natija bermasligi mumkin. Masalan, ba'zi davlatlar shaxsiy qonunni fuqaroligiga, boshqalari esa doimiy yashash joyiga qarab aniqlaydi. Abduraxmonovanning aliment majburiyatlarini asosiy muammo sifatida alohida ko'rsatishi ham dolzarbdir, chunki ota-ona va farzandlar o'rtasidagi chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda eng ko'p kollizion nizolar aynan aliment to'lash tartibi, miqdori va amal qiladigan qonun tanlash masalalarida yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, moddiy-huquqiy normalarni uyg'unlashtirish yoki xalqaro shartnomalar orqali yagona minimal standartlarni joriy etish zaruratini ko'rsatadi. Shu jihatdan, Abduraxmonovanning pozitsiyasi nafaqat nazariy asosga, balki amaliy yechim topishga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro va milliy huquq o'rtasida muvozanat yaratishga xizmat qiladi.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishda 1973-yildagi Gaaga konvensiyasi katta ahamiyatga ega. Bu Konvensiya oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan aliment majburiyatlariga taalluqli bo'lib, ular nikoh, qarindoshlik, otalik-onalik yoki hatto nikohsiz tug'ilgan bolaga nisbatan ham qo'llaniladi (1-modda). U faqat aliment majburiyatlari bo'yicha turli davlat qonunlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qiladi (2-modda). Konvensiya universal hisoblanadi. Ya'ni, uning qoidalari barcha hollarda amal qiladi – bunda taraf davlatlardan biri ishtirokchi bo'ladimi-yo'qmi, yoki aliment majburiyatiga tatbiq etiladigan huquq qaysi davlatniki ekanining ahamiyati yo'q (3-modda).

Asosiy qoida shuki, aliment majburiyatlari aliment oluvchining (kreditorning) doimiy yashash joyi huquqi bilan belgilanadi. Agar kreditor boshqa davlatga ko'chib o'tsa, ko'chib borganidan boshlab yangi yashash joyining qonuni amal qiladi (4-modda). Bunda faqat moddiy huquq qo'llaniladi, teskari havolaga yo'l qo'yilmaydi. Agar kreditor 4-modda asosida aliment ololmasa, tomonlarning umumiy fuqaroligi huquqi qo'llanadi (5-modda). Agar bu asos ham ishlamasa, da'vo qilingan davlatning ichki huquqi tatbiq etiladi (6-modda).

Aliment majburiyatlariga tatbiq etiladigan qonunchilik quyidagilarni belgilaydi (10-modda): kim va qachon aliment talab qilishi mumkinligi, kim aliment ishi qo'zg'atish huquqiga ega va bu da'vo uchun muddat qancha, davlat organi kreditorga bergan nafaqalarni qoplab olganida qarzdor qancha aliment to'lashi kerakligi.

Konvensiya talablariga muvofiq belgilangan huquqni qo'llash faqat jamoat tartibiga ochiqdan-ochiq zid bo'lgan hollardagina rad etilishi mumkin. Biroq, qo'llaniladigan qonunchilikda boshqacha ko'rsatilgan bo'lsa ham, alimentlar miqdorini belgilashda kreditorning ehtiyojlari va qarzdorning moliyaviy imkoniyatlari albatta hisobga olinishi lozim (11-modda).[8]

Ushbu konvensiya chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlarini tartibga solishda juda muhim yuridik mexanizm hisoblanadi. Konvensiyaning universalligi shundaki, u qo'llaniladigan huquqning shartnomachi davlat qonuni bo'lishi yoki ikki davlat o'rtasida o'zaro tan olish mavjudligiga bog'liq emas — demak, huquqni qo'llash doirasi keng va amaliy ahamiyati yuqori.

Asosiy qoida sifatida aliment oluvchining odatdagi yashash joyi qonuni tanlangani bola yoki boshqa himoyaga muhtoj shaxs manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan. Kreditor yashash joyini o'zgartirganida qonunning ham avtomatik ravishda o'zgarishi esa real hayotdagi harakatlilik (migratsiya) sharoitiga moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Teskari havolani istisno qilish esa kollizion jarayonlarni ortiqcha murakkablashtirishning oldini oladi.

Shuningdek, Konvensiya bosqichma-bosqich qo'llaniladigan kollizion bog'lovchilar (yashash joyi qonuni → umumiy fuqarolik qonuni → forum qonuni) orqali har qanday vaziyatda qo'llaniladigan "oxirgi chora" mexanizmini yaratadi. Jamoat tartibi istisnosi ham xalqaro huquqda muhim himoya vositasi bo'lib, milliy manfaatlar va asosiy huquqiy prinsiplarni saqlashga xizmat qiladi.

Eng e'tiborlisi, Konvensiya aliment miqdorini belgilashda faqat huquqiy formula emas, balki amaliy ijtimoiy mezonlar — kreditor ehtiyojlari va qarzdor imkoniyatlarini majburiy hisobga olish talabini qo'yadi. Bu esa normativ tartibga solish bilan birga insoniylik va adolat prinsiplarini ham mustahkamlaydi.

X.Abduraxmonova chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarining kollizion masalalari haqida muhim fikrlarni bildirgan. Unga ko'ra, ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishda va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga nisbatan aliment majburiyatlarida yashash joy kollizion bog'lovchisi qabul qilingan. Bola uchun aliment oluvchi (da'vogar)ning yashash joy qonuni kollizion bog'lovchisi aliment munosabatlarini tartibga soluvchi norma sifatida qabul qilinganda bolaning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat qonuni kollizion bog'lovchisi qo'llanilmaydi. Bolaning doimiy yashash joy qonuni ota-ona va bolaning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat qonunidan mustaqil bo'lib, ular birgalikda qaysi mamlakat hududida istiqomat qilsalar, shu mamlakat oila qonunchiligi qo'llaniladi. Bu esa

bola manfaatlarini yaxshiroq himoyalashiga olib keladi. Bola doimiy yashayotgan mamlakat qonunidan foydalanish da'vogarga qulay imkoniyatlarni yaratadi. Aliment munosabatlarida bolaning doimiy yashash joy qonuni subsidiar tarzda qabul qilingan.[9] Bola doimiy yashayotgan mamlakat qonunidan foydalanish nafaqat da'vogarga qulaylik yaratadi, balki aliment majburiyatlarini ijro etish jarayonini ham soddalashtiradi. Chunki, da'vo qaysi davlat hududida ko'rib chiqilsa, odatda shu davlatning huquqiy mexanizmlari, ijro organlari va ijtimoiy ta'minot tizimi ishga solinadi. Bu esa aliment to'lovlarini nazorat qilish, ijro qilish va yetkazib berishda amaliy jihatdan samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, bolaning doimiy yashash joy qonunini qo'llash orqali huquqni qo'llashda bevosita mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, yashash darajasi va minimal ta'minot standartlari inobatga olinadi. Shu sababli, aliment miqdori va shakli bolaning real ehtiyojlariga mos keladi.

Subsidiar tarzda bolaning yashash joy qonunidan foydalanish esa kollizion holatlarda asosiy bog'lovchi bo'lgan boshqa mezonlar (masalan, fuqarolik qonuni) bilan uyg'unlashib, nizolarni hal etishda moslashuvchanlik beradi. Natijada, turli davlat fuqaroligiga ega bo'lgan ota-ona va bola o'rtasida aliment majburiyatlarini belgilashda ham, ijro etishda ham adolat va bola manfaatlari ta'minlanadi.

Ammo bu boradagi ayrim Yevropa davlatlari qonunchiligiga nazar solsak, aliment majburiyatlariga nisbatan turli xil kollizion bog'lovchilar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Finlyandiya, Gretsiya va Fransiya umumiy fuqarolik tamoyili ustuvorlik qiladi. Agar aliment majburiyatlarida subyektlarining fuqaroligi bir xil bo'lmasa, Finlyandiyada bolaning tug'ilish paytidagi fuqaroligi qonuni, Gretsiya otaning fuqaroligi qonuni, Fransiya esa ota-onaning yashash joyi qonuni qo'llaniladi. Chet davlatlarda oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi aliment majburiyatlari otaning fuqaroligi qonuni (Italiya, Germaniya) yoki otaning doimiy yashash joyi qonuni (AQSH, Angliya) bilan belgilanishi mumkin.[10] Shunday qilib, chet el huquqida ham ushbu munosabatlarni tartibga solishda yondashuvlar birligi mavjud emas.[11]

Xulosa. Xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyatlarini tartibga solishning kollizion masalalari turli huquq tizimlari, xalqaro shartnomalar va amaliyotda yuzaga keladigan muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Olimlar fikrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy element bilan murakkablashgan aliment munosabatlarida qo'llaniladigan huquqni aniqlash va ijro mexanizmlarini belgilash ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Gaaga konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlar ushbu sohada muhim manba bo'lib xizmat qilsa-da, milliy qonunchilik bilan ularning uyg'unligini ta'minlash doimiy e'tibor talab etadi. Shu bilan birga, huquqiy bo'shliqlar, kollizion normalarni qo'llashdagi turlicha yondashuvlar va ijro mexanizmlaridagi farqlar amaliy muammolarni yuzaga keltiradi.

Shunday ekan, aliment majburiyatlarining xalqaro darajada samarali tartibga solinishi uchun ilmiy asoslangan kollizion yondashuvlarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish zarurdir. Bu esa, oxir-oqibat, aliment majburiyatlari orqali himoyalalanayotgan shaxslarning manfaatlarini yanada to'liqroq kafolatlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurahmonova X.B. Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi: diss. ... yurid. fan. dokt. – Toshkent, 208 b.
2. Дмитриева Г.К. Международное частное право. – М.: Проспект, 2004. – 573 с.

3. Международное частное право / Под ред. Л.Н. Дмитриевой. – М.: Проспект, 2001. – 541 с.
4. Гирфанова Д.И. Субъекты алиментных обязательств в международном частном праве // Вестник экономики, права и социологии. – 2013. – № 4.
5. Косова О.Ю. Семейное и наследственное право России. – М.: Статут, 2001. – С. 259–260.
6. Скаридов А.С. Международное частное право. – СПб.: Михайлов В.А., 1998. – 487 с.
7. Ерпылева Н.Ю. Статус физических лиц как субъектов международного семейного права // Законодательство и экономика. – 2010. – № 4.
8. Федосеева Г.Ю. Брачно-семейные отношения как объект международного частного права Российской Федерации: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2007.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).